

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA ODOB-AXLOQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

*Ilmiy rahbar: Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna
Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi
FarDU, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar o'quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari haqida so'z boradi. Maqolada o'quvchilarning axloqiy madaniyat ko'nikmalarini kelajakdagi o'quv jarayoni uchun yanada ustivorlashtirish, ularning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatishga yo'naltirilgan ma'lumotlar mavjud. Bu o'quvchilar uchun ham, qolaversa o'qituvchilar uchun ham muhim masala, chunki odeb-axloq ko'nikmalari o'qitish samaradorligini va o'quv jarayonida bolalarni rivojlantirishni kafolatlaydi.

Kalit so'zlar: madaniyat, o'qitish, axloq-odob, nazariy qamrov, axloqiy madaniyat, pedagogik faoliyat.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi davlatimizning ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha asosiy hujjatlarida "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi", - deb belgilab qo'yilgan. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: „Bizni o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlarimizning odeb-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq". Shunday ekan yuksak axloqli, jamiyatga barkamol ijobiy munosabatda bo'ladigan, o'zini namoyon qila oladigan, ijodkorlik qobiliyatiga ega yangi shaxsni shakllantirish ko'p jihatdan o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Insonning ma'naviyati uning axloqi, odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Axloq esa aqliy, huquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson axloqiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Demak, axloq insonning ijobiy sifatleri majmuidir. Odeb va axloq bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Odeb alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Axloq - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Axloq-odob jamiyatda, kishilar o'rtasida kundalik turmushda zarur bo'lgan hatti-harakatlar, urf-odatlar normalari, qoidalaridir. Barcha norma va qoidalarini kishilar tomonidan ado etilishini nazorat etish va tartibga solish ijtimoiy, yuridik asosda ta'minlanadi. Axloq - odob qoidalari va normalari xar bir xalqning qadriyatlarida muhim o'rin egallaydi. Unda o'sha xalqning turmush tarzi, madaniy saviyasi, an'analari, dini ifodalanadi, aks etadi. Shuning uchun axloq-odob qoidalari va normalari o'sha xalqning bitmas tuganmas ma'naviy boyligi hisoblanadi va millat darajasida shakllanganlik darajasi deb qaraladi. Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda axloq- jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmuidir.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonlari odob-axloq tamoyillari va me'yorlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish sifatini tubdan o'zgartirishi kerak. Qonunning asosiy qoidalari aynan shu yo'nalishda maktab ta'limini rivojlantirishga qaratilgan "Ta'lim to'g'risida" huquqiy, axloqiy me'yorlarga rioya qilish maqsadida davlat tomonidan professional standart kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy ko'nikmalarini shakllantirish o'quv jarayonida motivatsiyani oshirish, o'qituvchilar va bolalar orasidagi muloqotni rivojlantirish va o'qitishni jismoniy va ruhiy ravishda samarali qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'quvchilarning o'ziga xos odob-axloq xususiyatlarini aniqlash va ularning shaxsiy o'sishlarini kuzatish va rag'batlantirish muhim omillardan biridir.

Islom dinida insonning go'zal fe'l-atvori, yaxshi xulqi inson hayotidagi barcha ne'matlardan ulug'dir. Islomiy odob (axloq) insonni qalbi va aqli bilan tarbiyalashga chaqiradi, shunda u birinchi navbatda ustoz va kitobga hurmat qo'yadi, u yerdan yaxshi xulq uchun ilm oladi .

Islom dinining axloqiy mazmuniga insonni o'z manfaati yo'lida yomonlikdan ogohlantiruvchi hadislar hikmatlari singib ketgan. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sahobalaridan biri Ibn Zayd aytadilar: "Sizga nasihat qilgan har bir so'z sizni yaxshilikka chaqiradi yoki sizni yomonlikdan saqlaydi. Bu hikmatdir" . Abu Ja'far Muhammad ibn Yoqub aytadilar:

"To'g'ri harakatni yuzaga keltiradigan har bir to'g'ri so'z hikmatdir" insonni to'g'ri yashashga chorlaydi, shuning uchun uning harakatlarini axloq va axloqiy fazilatlar boshqaradi.

O'qituvchining asosiy maqsadi – yangi avlodni davlat talablari asosida tarbiyalashdir. Binobarin, agar o'qituvchi zarur maqsadlarni belgilay olsa, ularni o'z

pedagogik faoliyatida ongli ravishda, tushunib e'tirof etsa, bu uning pedagogik faoliyatini osonlashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'qib-uqqan, chuqur odob-axloqli, adolat va adolatsizlikning farqini tushungan inson qaysi yo'ldan borayotganligiga tushunib yetadi. Yurtiga nisbatan mehr, g'urur paydo bo'ladi. Natijada u ham Vatanning ravnaqiga munosib farzand sifatida o'z hissasini qo'shadi. Ajdodlarimiz yashab o'tgan, meni o'z bag'riga olib ulg'aytirayotgan Vatan uchun men nima qila oldim, meni go'dakligimdan yedirib-ichirgan ota-onam, ona zamin, qonlari tomirimda jo'sh urayotgan ajdodlarimiz sha'niga munosib ishlar qilayapmanmi, degan savollarini o'z vijdoni oldiga ko'ndalang qo'yadi. Demak, inson Vatanga muhabbatli, iymonli, adolatparvar bo'lishi muhimdir. Bunday fazilatlarini o'zida kasb etgan o'quvchilar qanday vaziyatda bo'lmasin hamma vaqt o'ziga to'g'ri yo'l tanlay oladi. Mustaqil jamiyatimizning kamol topishida o'zlarining chuqur bilimlari va adolatli hatti-harakatlarini ko'nikmaga aylantirishi yoshlarning asosiy vazifalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". 1-tom. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B.592.
2. Muxtorov A, Sultonov T. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012. –B.2
3. Rahmatov M. Zaripov B. Iste'dodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir. Li Kuan YU hikmatlari. –Toshkent: "Zamin nashr" nashriyoti, 2019. –B. 12.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDPU
5. G'oziev E. Pedagogik texnologiyalarning psixologik masalalari // Xalq ta'limi. – Toshkent: 1999. – № 6. – B. 36-38.